

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**
№ P12276127236

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma № 1.
2. **Loyihaning nomi:** Budjetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida.
3. **Loyiha ishlab chiquvchisi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Farg'ona shahar Tibbiyot birlashmasi va FARGONA VILOYAT STOMOTOLOGIYA SHIFOXONASI o'rtasida 2022-yil 26-yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 26-yanvar kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

4. **Loyiha bo'yicha taklif:**

Mazkur shartnoma loyihasini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazilib:

shartnoma loyihasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob berishini va qonunga mos xolda tuzilganligi;

tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida belgilanganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

X U L O S A:

Shartnoma loyihasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



X.Soburov

27.01.2022

ShARTNOMA

(Byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida)

26" yanvar 2022 yil.

Farg'ona shahri.

Ushbu shartnoma bir tomondan "FARGONA VILOYAT STOMOTOLOGIYA SHIFOHONASI nomidan boshqaruv raisi M.M Ismoilov vakilligida kelgusida "Ta'minotchi" va ikkinchi tomondan Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi nomidan birlashma boshlig'i M.N.Shokirov vakilligida kelgusida "Buyurtmachi" o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti.

- 1.1. "Ta'minotchi" "Buyurtmachi"ga ushbu shartnomaga asosan umumiy qiymati 5 000 000 (Besh million) so'm bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar (kelgusida "Tovar" deb nomlanadi)ni spetsifikatsiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnoma asosida yetkazib beradi.
- 1.2. "Buyurtmachi" esa o'z navbatida ushbu "Tovar"lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida "Ta'minotchi" ga to'laydi. Shuningdek, ushbu shartnoma bilan «Ta'minotchi» -«Buyurtmachi» imtiyozga ega bo'lgan shaxslarni ambulatoriya sharoitida davolashda shifokor retsepti bo'yicha dorixonadan bepul beriladigan dori-darmonlar bilan ta'minlashni amalga oshiradi. Bunda dori-darmonlarni berish va o'zaro xisob-kitob qilish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 22.07.2013 yildagi 204-sonli karoriga muvofik belgilanadi va Sog'liqni saqlash va Moliya vazirliklari tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.
- 1.3 Ta'minot "FARGONA VILOYAT STOMOTOLOGIYA SHIFOHONASI orkali amalga oshiriladi.

II. To'lov tartibi.

- 2.1. "Buyurtmachi" shartnoma imzolangandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" umumiy qiymatining 30 % ni oldindan 1 500 000 so'm miqdorda "Ta'minotchi" ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan "Tovar" lar to'lovining qolgan, ya'ni 70 % qismi esa "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi.

III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

- 3.1. "Ta'minotchi" ning huquq va majburiyatlari:
 - 3.1.1. "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" umumiy narxining 30 foizi "Ta'minotchi" ning hisob raqamiga oldindan to'langandan so'ng "Ta'minotchi" "Buyurtmachi" ni "Tovar" bilan ta'minlaydi.
 - 3.1.2. "Ta'minotchi" "Buyurtmachi"ga "Tovar"ni tegishli xujjatlar asosida belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.
 - 3.1.3. "Ta'minotchi" "Buyurtmachi" ga qulaylik yaratish maqsadida "Tovar" ni o'z transport vositalarida "Buyurtmachi" ning manzilgohiga yetkazib beradi. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati "Ta'minotchi"ning zimmasida qoladi.
 - 3.1.4. "Ta'minotchi" ning transport vositasida yetkazilgan "Tovar" ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan "Buyurtmachi" "Ta'minotchi" ning vakili ishtirokida "Tovar" yetkazilgan

kundayok dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi "Ta'minotchi" tomonidan 3 kun muddat ichida to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. "Ta'minotchi" Sog'liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan "Tovar"lar bilan "Buyurtmachi"ni ta'minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz "Buyurtmachi" "Tovar" ni olishga haqli emas.

3.2. "Buyurtmachi" ning huquq va majburiyatlari:

3.2.1. "Buyurtmachi" "Ta'minotchi" dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" uchun ularning umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, "Tovar" ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. "Buyurtmachi" "Ta'minotchi" dan O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yxatdan o'tkazilib, ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmatsevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan "Tovar"larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan "Tovar" sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, "Ta'minotchi" "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq "Tovar"ni qabul qilishni xamda ularning haqini to'lashni rad etib "Ta'minotchi" dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan "Tovar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldag qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. "Ta'minotchi" tomonidan yetkazib berilgan "Tovar" uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortik bo'lmagan miqdorda "Ta'minotchi" ga penya to'laydi.

4.3. "Ta'minotchi" tomonidan "Buyurtmachi" ga berilgan buyurtmalarni "Buyurtmachi" ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda "Buyurtmachi" dan O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) "Tovar" summasining 5 foizi, tez buziladigan "Tovar" lar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi.

4.4. "Ta'minotchi" tomonidan "Buyurtmachi" ga yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" larni yetkazib berishni "Ta'minotchi" asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun "Ta'minotchi" "Buyurtmachi"ga yetkazib berilmagan "Tovar" umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

V. Fors-major holatlari

5.1. Tarafdardan hech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "Buyurtmachi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

VII. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi

7.1..Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalarfaqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.

7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

7.3. Ushbu shartnoma xududiy G'aznachilik boshqarmasi (bo'limi) tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.

7.4. Shartnoma 2022 yil 31 dekabr kuniga qadar amal qiladi.

VIII. Tomonlarning pochta manzili va tolov rekvizitlari:

"Ta'minotchi"

"Buyurtmachi"

**FARGONA VILOYAT
STOMOTOLOGIYA SHIFOHONASI**

Farg'ona shahar .Sanoat kuchasi 14 ye

h/r:401421860304017073201054013

INN: 200151210 OKOHX: 91511

Tel: (73) 241-41-28

H/r: 23402000300100001010
Markaziy bank Toshkent shahar bank XKKM
MFO: 00014 Stir: 2011122929

Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi
Farg'ona shahar Qirlola 2-ye
SHHR:100022860304017072110054006
STIR: 200145074 OKOHX: 97600
Farg'ona shahar Gaznachilik bulinmasi
X/p: 23402000300100001010
Markaziy bank Toshkent shahar XKKM MFO:
00014 STIR: 2011122929

**" FARGONA VILOYAT STOMOTOLOGIYA
SHIFOHONASI**

talibarr

M. M Ismoilov



Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi

Boshlig'i

M.N.Shokirov

СПЕЦИФИКАЦИЯ

К ДОГОВОРУ № 1 от "26" января 2022 года
Между
Ферганской Областной стоматологической больницей и

о услуге по зубопротезированию

| № п/п | Наименование товара | Количество | Единица измерения | Цена по договору | Сумма по договору |
|-------|-----------------------|------------|-------------------|------------------|---------------------|
| 1 | Полный съемный протез | 10 | шт | 350 000 | 3 500 000,00 |
| 2 | Коронка металлическая | 30 | шт | 50 000 | 1 500 000,00 |
| | Итого | | | | 5 000 000,00 |

Пять миллионов сум.

Банковские реквизиты и адреса сторон:

"Исполнитель"

"Заказчик"

Наим.бюдж.орг:

Ферганская Областная Стоматологическая больница
г. Фергана ул. Саноат 14
Тел: +998 73 241 41 28
Ш/х: 401421860304017073201054013
ИНН : 200151210
ОКОНХ 91511
Молия Вазирлиги Ягона Газна хисобвараги
P/c 23402000300100001010
Банк: Марказий Банкнинг Тошкент шаҳар ББ хисоб
китоб касса маркази
МФО 00014
Газначилик бошқармаси ИНН: 201122919

Ferg'ona viloyati tibbiyot va tashmasi
Ferg'ona viloyati tibbiyot korxonasi 2-uy
BHM: 200151210
BIN: 200151210
Ferg'ona viloyati tibbiyot va tashmasi
H/r: 23402000300100001010
Bank: Markaziy Bank Toshkent sh. HOKM
MFO: 00014 STIN: 201122919

Главный врач Исмаилов М.М.

Юрист _____



М.М. Исмаилов М.Н. Шохроф